



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Parmonov Alisher Abdupattoyevich

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

## BADIIY DISKURSDA KINOYANING KOMIK EFFEKT YARATISH USUL VA VOSITALARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy matni boyituvchi stilistik troplardan biri bo'lgan “kinoya” ni tahlil qilindi. “Kinoya” va uning turli olimlar tomonidan berilgan fikrlari turli misollar yordamida tahlil qilindi va shaxsiy fikr va qarashlar berilgan ma'lumotlar bilan isbotlandi. Xususan, “kinoya”ning olimlar Giler A. Kassirer Ch. tomonidan berilgan fikrlariga alohida e'tibor qaratildi.

**Kalit so'zlar:** kinoya, sarkazm, stilistik trop, badiiy tasvir vositasi, lisoniy, nolisoniy, kognitivlik, metafora.

Matnda komik effekt yaratish ko'pgina mualliflar tomonidan o'z oldiga maqsad qilib qo'yiladigan vazifalardan hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirishning ko'plab uslubiy, lingvopragmatik, leksik va boshqa ko'plab vositalari mavjud bo'lib, muallif ulardan eng maqbulini o'z kommunikativ niyatiga mos holda tanlab olish imkoniyatiga egadir. Bu uslubiy priyom asosan til vositalariga tayangan holda yaratilsada, diskursda bularning o'zi kifoya qilmaydi. So'zlovchi yoki yozuvchi bunda ekstralingvistik komponentlar, shaxsning lisoniy xususiyatlari, kontekst va omillarini e'tiborga olgan holda ikki tomonlama mazmun

yaratadi. Kinoyaning eng sezilarli funksiyalaridan biri bu baholash funksiyasi bo‘lib, bunda so‘zlovchi yoki yozuvchi borliqdagi ob‘yektning asl birlamchi va ikkilamchi hosilaviy ma‘nolari o‘rtasidagi munosabatni uslubiy vosita sifatida ishlatilishining guvohi bo‘lamiz. Quyidagi misolni ko‘rib chiqaylik.

Saunada ikki qiz cho‘milmoqda, shunda bittasi ikkinchisiga murojaat qiladi:

- ✓ Dilya, shampunni uzatib yubor!
- ✓ Axir shampun oldingda turibdi-ku, Gulya!
- ✓ Bu shampun quruq sochlar uchun ekan, mening sochim esa xo‘l-ku.

Bu suhbatda qo‘llangan kinoya so‘zlardagi ko‘p ma‘nolilik xodisasiga asoslangan. Shampunning etiketkasiga yozilgan “Quruq sochlar uchun” degan birikmani qizlardan biri noto‘g‘ri tushunadi va oppozisiya aslidagi “yog‘li – quruq” o‘rniga “xo‘l - quruq” qa aylangan.

Natijada yog‘siz sochlar uchun mo‘ljallangan shampun o‘z oldida turib, u o‘rtog‘idan xuddi shunday shampunni so‘ragan. Bu so‘zlarning ko‘p ma‘noligiga asoslangan kinoya ko‘p ma‘noli ikki so‘z o‘rtasidagi semantik qarama – qarshilikni ifodalaydi. Bu yerda kinoya qizning so‘zlar ma‘nolari o‘rtasidagi farqni anglamaganligi ustidan kulinmoqda. Albatta bu kinoya baholash ma‘nosidan holi, chunki qizning shampunni tanlay olmasligi juda xavfli oqibatlariga olib kelmaydi. Bu shunchaki beozor yumor effektini yaratuvchi kinoyadir. Yana bir misolni ko‘rib chiqaylik: Futbol bo‘yicha jahonda sodir bo‘lgan yangiliklar bilan tomoshabinlarni tanishtirayotgan reportyor dedi:

- Keyingi bosqichga quyidagi komandalar chiqa olmadilar: Kamerun sherlari, Nigeriya burgutlari va bizning eshaklar. Bu misol shunisi bilan xarakterliki, unda kinoya metafora yordamida ifodalangan. Reportajning birinchi qismida eslatilgan hukmlarni yakka – yakka shaklda ifodalaydigan bo‘lsak quyidagi holat kuzatiladi:
- Kamerun sherlari keyingi bosqichga chiqa olmadi. Bizga buning zig‘ircha ham qizig‘i yo‘q. Battar Bo‘lmaydimi?
- Nigeriya burgutlari keyingi bosqichga chiqa olmadi. Ulardan buni kutsa bo‘lardi. Har ikki hukmga ham bizning munosabatimiz aytarli bir xil. Ular bizdan uzoq. Bizning komandaning yo‘li bilan kesishmaydi. Bizga baribir. Ular chiqadimi, yo‘qmi. Ammo uchinchi hukm bizni darhol xushyorlikka tortadi:
- Bizning eshaklar keyingi bosqichga chiqa olmadi.

Albatta siz ko‘rib turganingiz bu metafora ostida “futbolchilar” turibdi. Munosabat keskin o‘zgaradi. 22 ta o‘yinchi, 5-6 ta katta-kichik trener nima qilib yuribdi davlatning shuncha mablag‘ini sovurib, davlatma – davlat sayr qilib, o‘yinni, natijani “xurjun” qilib, oxiriga kelganda “Bo‘lganimiz shu! Yana to‘rt yil kutamiz. Biror narsa o‘zgarib qolar” deb turishsa, odamlar nima qilsin, xursand bo‘lsinmi, do‘ppisini osmonga otsinmi? Reportyorning gapi juda o‘rinli bo‘lib, o‘z vaqtida egasini topib aytilgani uchun millionlab ishqibozlar “Nega sen butun millatni hayvonga tenglashtiryapsan?” demadi. Chunki bu yerda gap millionlar haqida emas, o‘sha 22 ta “eshak” va ularning atrofidagi 4-5 ta “podachi” haqida gap borayotganini hamma tushunib turardi. Ikkinchi tomondan esa bu kinoyani ishlatgan reportyor “bizning” so‘zini qo‘shib o‘zini ham shunga aloqadorligini tan olib turgani uchun hech kim undan xafa bo‘lmaydi. Chunki o‘z faoliyati davomida qancha reportaj olib borgan bo‘lsa o‘sha 22 yigitni vaqtida osmonga olib chiqib maqtagan, “millatning orzusi”,

“millatning kelajagi” kabi iboralar bilan ko‘p maqtagan edi. Natija esa tayin. Eshaklar soni ko‘paydi xolos. Til inson ruhining faoliyatidir. Fikrni inson ruhi yaratadi. Fikr yaratildimi, inson ruhi faoliyat ko‘rsatyapti. Demak borliq olamni nazorat qilib, bilib turibdi va bilish jarayonining natijasi o‘laroq o‘zi yashaydigan dunyoning tasvirini yaratib boradi. Demak lisoniy tasvir dunyoning tabiiy manzarasiga mos tushadi. Mana shuning uchun tilshunoslar tilning tarkibida psixik (ruhiy) komponent mavjud deyishadi. [1.507]

Mana shu ruhiy komponent dunyo haqidagi bilimning “Ikki karra ikki to‘rtidir” deya quruq faktdan iborat bo‘lib qolavermasdan qandaydir qo‘shimcha ma‘no unsurlari borligini ko‘rsatib qo‘yadi. Aynan kinoyada so‘zlovchi o‘zi ko‘rib turadigan narsa yoki hodisaga erkin, ammo hushyorlik bilan ikki tomonlama tushunish imkonini yaratadi-ki, uni sezgan sezib, sezmagani sezmay qolishi mumkin. Kognitiv tilshunoslikdagi asosiy postulatlardan biri bu “Til - fikr mavjudligining shartidir”. Aniqrog‘i asosiy shartidir. Chunki gapirish ehtiyoji biror fikr paydo bo‘lganda paydo bo‘ladi. Hech qanday fikr bo‘lmasa gapirishga ham hech qanday ehtiyoj yo‘q. Demak fikr til mavjudligining asosiy shartidir. Bu fikr hukm shaklidami, bilishga istak, xohish, biror narsa qilishga ehtiyoj yoki zaruriyat bo‘lgandagi holatning formulasi shaklida bo‘ladi-mi, baribir o‘sha narsa kommunikasiyani yuzaga keltirishning birlamchi elementidir. Kinoya ham biror narsa yoki hodisa haqida gapiruvchi qandaydir boshqalar bilmagan, ko‘rmagan yoki bilishni xohlamagan paytda paydo bo‘ladi. Gapiruvchi o‘sha fikrni reprezentasiya chiqaradi, ro‘yobga chiqaradi, natijada kinoya uslubiy priyom sifatida dunyoga keladi. Tilning psixolingvistlar tomonidan tez – tez ta’kidlab turiladigan postulatlardan biri bu: “Til dunyoni bilishni cheklaydi”.<sup>2</sup> Bu postulatga ko‘ra har bir so‘zlovchi dunyoni tasvirlashda o‘zi bilgan ma‘no, mazmun, konseptual strukturalardan foydalanib ketavermay, mana shu til, jamiyat, madaniyatda qabul qilingan nutq stereotiplari doirasidagina cheklangan holda nutq mahsuloti yaratishi belgilab qo‘yilgan. Semiotika nuqtai nazaridan bir tildagi belgi boshqa tildagi belgi bilan hech qachon to‘liq mos tushmaydi. Gapiruvchi xohlaydi-mi, yo‘qmi faqat o‘z tili konseptual sferasi doirasida faoliyat yuritadi. Chegarani buzishga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘z nutqida kinoyani qo‘llagan shaxs mana shu chegarani atayin, mana shu til belgilaridan foydalanib ularga birlamchi holatda tegishli bo‘lmagan mazmunni ifodalashga harakat qiladi va bunga erishadi. Bu esa mantiqdagi “Markov zanjiridagi yangi element” effektini beradi va stilistik vosita sifatida qayd etiladi. Yana bir misolni ko‘rib chiqaylik.

I am not young enough to know everything.

Bu kinoyaning o‘zbekchasi “Men hamma narsani biladigan darajada yosh emasman.” Birinchidan, bu misolning muallifi, ko‘rinib turibdi-ki yosh emas, katta yoshdagi inson. Asli hamma narsani biladigan inson yosh bo‘lmaydi, ammo bu yerda muallif o‘zining yosh emasligini ochiq matn bilan, ochiq oydin aytib turibdi. Ikkinchidan, “Hamma narsani bilavermayman” degan fikr ifodalangan. Bu yerda ikki hukm o‘rtasida qarama - qarshilik bor. Masalan, mantiqdagi sillogizmlardan foydalanib tahlil qilaylik.

- 1) Men yoshman. (Yoshlar hamma narsani bilavermaydi. Demak, men hamma narsani bilavermayman.)
- 2) Men yosh emasman. (Men hamma narsani bilaman. Demak, kattalar hamma narsani biladi.)
- 3) Yoshlar hamma narsani bilavermaydi. (Men hamma narsani bilavermayman. Demak, men yoshman.)

Bu kinoya barcha davlatlardagi saylanadigan hukmdorlar, prezidentlar, bosh ministrlar, senator, hokim va boshqa shu kabi katta – kichik amaldorlarga tegishli. Chunki ularning aksariyat ko‘pchiligi shu taomilga amal qilib taxtga o‘tirganlar, amal pog‘onalardan ko‘tarilganlar. Shunisi qiziq-ki, bu kinoyadagi aynan shu salbiy mazmun ko‘pchilik noprofessionallar uchun tanlov mezoni bo‘lib qoldi. Yana bir kinoyani ko‘rib chiqaylik. “Those who are unable to learn from past meetings are condemned to repeat them” O‘zbekchasi: “Avvalda o‘tkazilgan majlislar tajribasidan o‘ziga kerakli xulosa chiqarib ola olmagan odamlar ularni (majlislarni) qayta-qayta o‘tkazishga mahkumlar.” Bu kinoya ishbilarmonlar, rahbarlar, menejerlar va umuman boshqaruv tizimiga aloqador kimsalarga tegishli bo‘lib, u avvalroq mavjud bo‘lgan boshqa bir hukmning toraytirilgan variantidir. Birlamchi variantda kinoya yo‘q, ya‘ni “O‘tmishdagi xatolardan saboq olmagan odamlar ularni takrorlashga mahkumdir”.

Keyingi hukmdagi kinoya shunda-ki, birinchi variantdagi “xatolar” so‘zi o‘rniga “majlislar” so‘zi almashtirilgan. Mana shu bir o‘zgarish kinoya yaratgan va mazmunni biroz boyitgan. Barcha majlislarni ham xato deb bo‘lmaydi, albatta. Chunki majlislarda ayrim paytda juda zarur qonun, qarorlar qabul qilinadi. Lekin ayrim rahbarlar uchun “Majlis – ish olib borishning eng samarali usulidir”. Buni esa to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Shu mavzuga oid yana bir kinoya mavjud: Most managers talk for 80% of the time during meetings and then thank everybody for their contributions. O‘zbekchasi: “Ko‘pchilik rahbarlar majlisning sakson foiz vaqtida o‘zlari gapirishadi-da keyin boshqalarga ishtiroklari uchun minnatdorlik bildirib majlisni tugatadilar”.

Bu holat “Majlis – ish yuritishning eng samarali yo‘li” deb o‘ylaydigan rahbarning ish stilidir. Bu yerda kinoya “Majlis – bu jamoaning biror masala bo‘yicha ko‘pchilikning fikrini bilish, qiyoslash, tahlil qilish orqali eng muqobilini belgilab olish uchun o‘tkaziladigan yig‘ilishdir” degan ta‘rifga butunlay teskari holatdir. Odatda avtoritar rejimlarda shu narsa kuzatiladi. Bunday holatda boshliqning gapida aniq bir rasional taklif, g‘oya yoki fikr bo‘lmaydi va u siyqasi chiqib ketgan, jamoaga yod bo‘lib ketgan narsalarni qayta – qayta takrorlashdan iborat bo‘ladi. Bunday hollarda quyidan biror bir juda foydali taklif yoki maslahat chiqsa ham hech kimga unga sariq chaqalik e‘tibor bermaydi. Agar fikr so‘ralsa-yu aytilgan fikrga hech kim reaksiya qilmasa, bu qanaqa hol? Kinoya aynan shu holatni tasvirlab beradi.

Bu kabi ruhiy holat ko‘plab odamlarda kuzatiladi, ammo juda kam odamlargina buni tan olishga o‘zida kuch topadi. Rostdan ham inson o‘zi hayoliga keltirgan, miyasiga kelgan fikrlarning 10% ni ham aytmaydi, ular yuzaga chiqmaydi. Agar qandaydir bir sababga ko‘ra, yoki ruhiy stress holatida yoki katta dozadagi alkogol ta‘sirida ular yuzaga chiqib ketsa, turli hayotiy holatlarda konfliktli situasiyalar yuzaga keladi. Undan tashqari agar odam hayoliga nima kelsa aytaversa, unday inson ruhiy kasal hisoblanadi. Inson yuguruk tilini “tormozlab” turishi kerak, agar tormoz ishlamay qolsa, odamlar orasida munosabat buziladi. Inson hayoti izdan chiqadi. Buni juda yaxshi bilgan odamning fikri kinoya yo‘li bilan bildirilmoqda. Keyingi misolda ham shu g‘oyaga yaqinroq fikrlar ifodalanadi: “The secret of success in life consists in knowing how to change men’s minds.” Tarjimasi: Hayotda muvaffaqiyatga erishishning siri odamlar fikrini qanday qilib o‘zgartira olishning yo‘lini bilishdir.

Xo‘sh odamlarning fikrini qanday qilib, nima yordamida, qachon o‘zgartirish mumkin? Buning siri nimada? Buning siri tilning ifoda kuchidan samarali foydalana olishdir. Mashhur bir mutafakkir shunday deydi: “Muloqot – bu insonga inson tomonidan ishlov berishdir”, yoki “Insonning inson tomonidan ishlov



berilishidir”. Muloqot, ayniqsa lisoniy muloqotning asosiy maqsadi ham boshqa odamlarga til yordamida ishlov berish, ulardan axborot olish (so‘roq gaplar), ularni biror ishni amalga oshirishga zo‘rlash, majbur qilish (buyruq va kauzativ gaplar), yangi axborotni uning ongiga singdirish (darak gaplar) va his – hayajonga chorlashdan (undov gaplar) iborat. Odamning fikrini o‘zgartirishning yuzlab, balki minglab resepti bor bo‘lsa kerak, ammo bu tavsiyalar hammasi muayyan bir vaqt, vaziyat, holatdagi odamlar uchun bo‘lgani uchun ulardan boshqa hech bir holatda foydalanib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham uning sirini bila olgan kam sonli odamlar omadli bo‘ladi. Odamning fikrini o‘zgartirish uchun uning nima fikrda ekanligini aniq bilish va o‘sha bilim asosida natijaning ehtimoliy variantini topa bilishdadir. Boshqacha qilib aytganda, odam biror gap aytsa, uning bu gapni nima sababdan, nima maqsadda, nima asosida gapirganligini bilish va shu asosda eng muqobil variantni tavsiya qilish mumkin. O‘sha variant balki so‘zlovchi uchun o‘zi kutgan, qidirgan javob bo‘lishi mumkin. Bu gapdagi kinoya shundaki, hozirgi paytda dunyoda 7 milliard odamning barchasi buni xohlaydi, ammo uning faqat milliondan biriga bu qobiliyat berilgan. Bu esa umuman olganda juda ko‘p emas. Avvaldan kinoya siyosiy diskurs va sud – tergov ishida ko‘p ishlatilgan bo‘lsada, hozirda uning ishlatilish ko‘lami kengayib ketdi. Diplomatiya, reklama, menejment, OAVlarda qo‘llanilishidan tashqari badiiy diskursda ham ko‘p qo‘llanila boshladi. Kinoya faqat ilmiy bayon uslubida va rasmiy hujjatlar stilida ishlatilmaydi. Buning sababi ilmiy bayon stilida termin va so‘zlar faqatgina o‘sha fan sohasida qabul qilingan ma’noda ishlatiladi. Sohaga mos ma’nolarida ishlatilishi talab etiladi, u yerda so‘zlarning ko‘p ma’noliligiga yo‘l qo‘yilmaydi. Kinoya, mubolag‘a, metafora, metonimiya va hokazolar ilmiy stilga yot elementlardir. Huddi shu narsa rasmiy hujjatlar stili, sud – tergov hujjatlari tilida umuman uchramasligi kerak. Biror bir davlat konstitusiyasi yoki me‘yoriy hujjatlarida ikki xil talqin qilish mumkin bo‘lgan punkt, modda yoki hukm bo‘lsa, demak, bu qonun yoki boshqa yuridik hujjat bo‘sh ishlangan, tahrirga muhtoj, qisqasi yaroqsiz hujjatdir. Demak, kinoya badiiy diskursga mos, u yerda gullab yashnaydigan stilistik priyomdir. Chunki u yerda gap inson haqida, uning fe‘l – atvori, qiziqishlari, o‘ziga xos xususiyatlari, xarakteri, boshqa o‘ziga o‘xshagan yoki o‘xshamagan insonlar bilan muloqoti va boshqa ijtimoiy – siyosiy, ruhiy, madaniy va maishiy munosabatlari haqida so‘z yuritiladi. “Inson – deb yozadi mashhur filosof A. Gelen – bu insonning dunyosi, davlat va jamiyatidir” (SBF. s.506) Buni qanday talqin qilmoq kerak. Insonning o‘zi bir dunyo, har bir insonning o‘zi bir dunyo bo‘lsa, jamiyat millionlab dunyolar, jamiyat va davlatlarning yig‘indisidir. Bu juda katta qamrovli tushuncha bo‘lib, bu tushunchaning juda kengligini sezgan A. Gelen: “Inson – kamchiliklarni o‘zida jam qilgan mavjudot” deb yozadi. (o‘sha yerda 507 bet) Butun dunyolarni o‘zida jam qilgan insonni “kamchiliklarning koni” deb atash bir qarashda g‘alatidir. Lekin unday emas. A. Gelen insonlarning yurish – turish normalari, modellari, patternlarini dasturlab, ikirchikirlarini belgilab, uning hayotini avvaldan bilib olsa bo‘ladigan bir robotga aylantirib bo‘lmaydigan mavjudot deb baho beradi.

Kinoya o‘sha davrlarda, quldorlik davrlaridayoq paydo bo‘lgan. Chunki bunga ehtiyoj ijtimoiy vaziyat taqozosiga ko‘ra paydo bo‘lgan. Quldor va qul o‘rtasida, feodal va krepostnoy o‘rtasida aloqa kamdan kam paytlarda bevosita bo‘lgan. Buning sababi shundaki, har ikki holatda quldor va qul yoki yer egasi va krepostnoy o‘rtasida o‘nlab, yuzlab mustaqil fuqarolar bo‘lgan. O‘rtada turgan bu korchalonlar har ikki sinf vakillaridan o‘ziga nafli munosabat o‘rnatish uchun, birining gapini boshqasiga “ochiq matn” bilan yetkazmasdan o‘ziga naf keltiradigan “bo‘yoqlar bilan chaplab” yetkazganlar va shu tariqa jamiyat yashnab borgan. A.Gelenning yana bir fikrini keltirishni o‘rinli deb topdik.

“Inson harakatlanuvchi va harakatga keltiruvchi mavjudotdir, chunki u ixtisoslashtirilmagan” [1.508]

A.Gelenning gapida shu narsa ifoda qilinadi-ki, inson ixtisoslashtirilmagan deganda, insonlardan kimlardir qirol, kimlardir qul yoki boshqa birlari ozod fuqaro bo‘ladi. Shuning uchun ular biror bir ijtimoiy rolga ixtisoslashtirilmagan, bugun qirol bo‘lsa ertaga qul bo‘lishi, bugun jangchi – g‘ulom bo‘lsa, ertaga sulton bo‘lishi mumkin. (Masalan Sulton Beybars yoki Qadimgi Rim davridagi soldat – imperatorlar deb atalgan imperatorlarni yodga oling.) Qirol Artur, qadimgi german dostonlari qahramoni ham bir paytlar o‘zga xalqdan qul qilib olib kelingan bola bo‘lgan-ku. Demak, insonlarda munosabat pragmatlingvistika talablariga, me‘yorlariga javob beradigan nutq mahsulotini yaratish ehtiyojini yaratadi. Bunda esa har qanday joyda ham fikrni to‘g‘ridan – to‘g‘ri ifoda qilavermaslik kerak bo‘lsa, qorani oq, oqni qora deyish zarurati paydo bo‘ladi. Bu bir qarashda mushkul bo‘lib ko‘rinadigan, ammo bemalol uddalay olsa bo‘ladigan vazifani har qanday o‘rtamiyona so‘zlovchi ham bajara oladigan ishdir. Demak kinoya borliq haqidagi bilimni ikki xil ifoda etish imkoni yaratilganda ongda paydo bo‘ladi va so‘zlovchi yoki yozuvchi uning birinchi variantini tanlaydimi yoki ikkinchisini, uning kommunikativ kompetensiyasiga, nutq strategiyasiga, nutq intensiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Xuddi shu holatda so‘zlovchi yoki yozuvchi kinoyaviy vaziyatni e‘tibordan chetda qoldirib, umuman verballashtirmay suhbatni davom ettirishi ham mumkin. Chunki kinoyada ifoda etilgan bilim tinglovchiga yetib bormasa, uni so‘zma – so‘z tushunganday tushunsa stilistik effekt ro‘y bermaydi. Kinoya sodir bo‘lmaydi. Xuddi mana shu holat inson madaniyatining o‘zgarishi, tashqi ijtimoiy sharoit va tuzumga qarab turlicha ko‘rinish olishi mumkinligini izohlab beradi. Insonlar bor ekan, fikrlarini ifoda qilishga ehtiyoj bor ekan, kinoya bor. Ch. Kassirer aytganidek: “Insonning xarakterli belgisi, asosiy xususiyati, uni boshqa barcha tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi narsa bu uning metafizik xususiyati ham, ruhiy tabiati ham emas, balki uning mehnatidir.” [2.509]

### Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati

1. Гелен А. Ўша ерда 508.
2. Кассирер Ч. Ўша ерда 509.
3. Гальперин, И. Р. Текст как объект лингвистического исследования [Текст] / И. Р. Гальперин. – М.: Наука, 1981. – 138с.
4. Гамезо, М. В., Домашенко И. А. Атлас по психологии [Текст] / М. В. Гамезо, И. А. Домашенко. – М.: Пед. Общество России, 2004. – 276с.
5. Гегель, Г.В.Ф. Лекции по эстетике. Книга первая (Сочинения, Т. XII) [Текст] / Г. В. Ф. Гегель. – М, 1938. – 494с.
6. Гоголь, Н.В. Мертвые души [Текст] / Гоголь, Н.В. – Изд-во: ОЛМА Медиа Групп, 2012. – 448с.
7. Malika Rajarova. EFFECTIVE WAYS OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING ISSN: 2249-7137 Vol. 11. – 2021.